

NASRULLOXON-BUXORO AMIRI

Ro‘zmetova Guli Davronbek qizi

Urganch davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 212-guruh magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Nasrulloxonning Buxoro amirligi taxtiga kelishi, Xiva va Qo‘qon xonliklari va Rossiya bilan munosabatlari, Shahrisabzga qilgan yurishi va uning harbiy islohotlari haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Nasrullo, Abdusamad Tabriziy, Shahrisabz, Kitob, O‘ratepa, Marv, harbiy islohot, tashqi siyosat.

Amir Haydar 1826-yilda vafot etganidan keyin taxtga uning ikki og‘li amir Husayn(ikki yarim oy) va amir Umar(to‘rt oy) qisqa muddat taxtga o‘tirib, o‘z ukalari Nasrullo tomonidan o‘ldiriladilar. Shundan so‘ng taxtga amir Haydarning uchinchi og‘li Nasrullo o‘tirdi. Amir Nasrulloning hukmronlik davri(1826-1860) avvalo, Buxoro amirligidagi siyosiy tarqoqlik, zodogonlarning boshboshdoqliklariga barxam berish bilan izohlanadi. Amir Nasrullo hokimiyatni boshqarishda nihoyatta qattiqqo‘llik siyosatini olib boradi. O‘zining berahmlik siyosati tufayli amir Nasrullo “Qassob amir” degan nomga sazovor bo‘lgan edi. Shuningdek, Amir Nasrullo o‘zining ko‘p yillik hukmronligi davrida Buxoroni obodonlashtirish va shaharda ulug‘vor me‘moriy inshootlar qurishga ham alohida e‘tibor qaratgan. Amir Nasrullo tomonidan va uning davrida Buxoroda Qozi Xasanxo‘ja, Olimjonbiy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Modarixon, Aliy Cho‘bin, Mirzo Absulg‘affor, shuningdek, Islomxo‘ja va Tojiddin madrasalari qurildi. 1855-yili Xalifa Xudoydod me‘moriy majmuasining qurilishi yakunlandi. Amir Nasrullo saroyida ko‘plab tarixchilar va shoirlar yashab ijod etgan. Amir Nasrullo amirlikda eng nufuzli otaliq lavozimini bekor qilib, qo‘shbegi lavozimini egallagan shaxsga mamlakatning bosh vaziri ixtiyoridagi vakolatlarni topshiradi. Amirni davrida qo‘shbegi amirdan keyingi shaxs hisoblanadi.

Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni tan olmaydigan bo‘ysunmas mahalliy hokimlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. bu borada Shahrisabz Buxoroga bo‘ysunmay qo‘ygan eng yirik mustaqil viloyat hisoblanardi. Shuning uchun ham amirlikning siyosatidan norozi bo‘lgan ko‘plab amaldorlar Shahrisabzga qochib panohtopganlar. Amir Nasrullo 1832-yilda Shahrisabzga qarshi yurish boshlab, 20 yil mobaynida 32 marta

yurishdan so'ng 1856-yilda Shahrisabz va Kitobni uzil-kesil bo'ysundirishga erishdi. Amir Nasrullo Shahrisabzni egallashda o'zining piri komili Shayx Muhammad Husayn Alaviy Buxoriyning ruhiy madadiga tayanib, g'alaba qozongan. Shahrisabzga qilingan harbiy yurishlar ichida 1827, 1844, 1856 yillardagi yurishlar alohida ajralib turadi. 1856-yili amir Nasrullo taslim bo'lgan Shahrisabz hokimi Iskandarni butun oila a'zolari va yaqinlari bilan Buxoroga jo'natadi. Unga Buxoro shahrida kata hovli va ikkita bog' tortiq qiladi hamda uni Qorako'l viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Amir Nasrullo Iskandarning singlisiga uylanadi. Uni Buxoroda Kenagasoyim deb atashardi. Uylanishdan maqsad Shahrisabz Kenaslari o'rtasida katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lish va Shahrisabzni o'z qo'lida ushlab turish edi. Amir Nasrullo Shahrisabz vohasini qo'lga kiritgandan so'ng Shahrisabzga Abduxoliqbek(keyinchalik Olloyorbek)ni hokim qilib tayinladi.

Amir Nasrullo Qo'qon va Xiva xonliklari bilan ham urushlar olib boradi. Amir Nasrulloning 1840-yilda Qo'qon xonligiga qilgan yurishi natija bermadi. Qo'qonda Muhammad Alixinning shariatga zid ishlarni yana davom ettirishi , Qo'qon xonligi hududini uzil-kesil Buxoro amirligiga qo'shib olish hamda Movorounnahr va Xorazmni yagana davlat ostida birlashtirish niyati Nasrulloxonni Qo'qon ustiga yurish qilishga undaydi. Qo'qon xonligidagi o'zaro ichki nizo-janjallardan foydalangan amir Nasrullo 1842-yil bahorda ikkinchi marta bu yerga lashkar tortadi. U ishni dastlab Shahrisabzda turgan Nodirabeginning kichik o'g'li Sulton Mahmudxonni o'zi bilan birga olib kelib O'ratepaga hokim qilib tayinlashdan boshlaydi. O'sha davrda O'ratepa Buxoro amirligi ixtiyorida edi. 2842-yil 26-aprelda xonlik to'la zabt etilib, poytaxt Qo'qon shahri egallandi. Qo'qonliklar amir Nasrullo qo'shinlariga o'z ixtiyorlari bilan shaharni jangsiz topshirganlar.

1843-yilda Marv viloyati uchun talashayotgan Buxoro va Xiva o'rtasida urush harakatlari kelib chiqdi. Xiva qo'shini Hazorasp yaqinida Buxoro qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi. Lekin Marv Buxoro amirligi tarkibida qoldi. Faqat 1845-yildagina Xiva xonligi Marvni egalladi.

Bu davrda Rossiya-Buxoro munosabatlari ham davom etdi. Amir Nasrullo hukmronligi davrida yuborilgan elchilar rus hukumati oldiga, asosan, Buxoro tovarlaridan olinayotgan boj to'lovlarini kamaytirish, tog'-kon ishlari olib boorish uchun mutaxassislar yuborish hamda amirlikka zambarak quroli sotish kabi masalalarni qo'ydi. 1858-yilda Buxoroga polkovnik Ignatyev boshchiligida Rossiya elchilari keldi. Muzokaralar davomida Rossiya bilan savdo-sotiq ishlarida Buxoro savdogarlariga katta imtiyozlar berildi. Amir Nasrulloning ashaddiy g'animlari ham uning qattiqqo'l va mohir siyosatchi, mashhur davlat arbobi ekanligini e'tirof etishga majbur bo'lganlar. Masalan, 1861-yil 10-

yanvarda Orenburg korpusining qo‘mondoni general-adyutant Bezak tomonidan Rossiya imperiyasi harbiy ishlar ministri Chernishovkaga yo‘llagan ma‘lumotnomada Amir Nasrullo haqida quyidagi fikrlar mavjud:

“Ajoyib aql egasi, eng uddaburon va mohir siyosatchilardan bo‘lmish Nasrullo Buxoroda hukmronlik qilgan 34 yil davomida Turkustondagi barcha xalqlar ustidan alohida bir jozibali qudratga ega bo‘ldi”.

Amir Nasrullo ma‘muriy va siyosiy sohalarda islohotlar o‘tkazishdan tashqari harbiy islohot qilishga ham katta e‘tibor qaratdi. 1837-yili o‘tkazilgan harbiy islohotlar natijasida Buxoro qo‘shini jangovor holati yaxshilandi. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar bo‘laklari (jami 40 000 sarboz) va 250 kishilik to‘pchilar guruhi tashkil qilingan. Xorijdan harbiy mutaxassislar jalb etilib, ulardan zamonaviy qurol-yarog‘lar tayyorlash va foydalanish sirlari o‘rganildi. Masala, 1834-yili Erondan kelgan Abdusamad Tabriziy yevropacha usuldagi nizomiy askarlarga tartib bergan va 1837-yili maxsus to‘pchilar qo‘shinini tuzgan. To‘p va zambaraklar qurish uchun Buxoroda alohida to‘pxonalar qurilgan. 200 kishidan iborat ingliz rusumidagi maxsus askariy guruh tuzilib, unga eroniy qullar kiritilgan. Ushbu guruh Amir Nasrulloning o‘ziga xos milliy gvardiyasi bo‘lib unga Abdusamad Tabriziy boshchilik qilgan. Abdusamad Tabriziy amir Nasrulloning harbiy maslahatchisi va noibi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. Harbiy qo‘shinda qizil kurta, oq shalvar va qalpoqdan iborat maxsus harbiy kiyim joriy etildi. Muntazam piyoda armiyasining soni 40 000 sarbozdan iborat bo‘lgan. Amir sarbozlariga Eron, Turk zobitlaridan tashqari rus ofitserlari ham ta‘lim bergan.

Xulosa

Amir Nasrullo Buxoro davlatida qat‘iy markazlashtirish siyosatini olib bordi. Shuningdek, amir Nasrullo tomonidan Buxoro amirligida o‘tkazilgan turli islohotlar natijasida davlatning iqtisodiy va harbiy qudrati birmuncha yuksaldi. Ma‘muriy sohadagi islohotlar oqibatida davlat boshqaruviga xalqning turli tabaqalari orasidan chiqqan kishilar kelib qo‘shildi. Ayniqsa, harbiy sohadagi islohotlar ancha samarali kechdi. Aynan harbiy islohotlarning natijasi keyinchalik Rossiya imperiyasining tajovuzi va hujumiga qarshi kurashda Buxoro amirligi uchta o‘zbek davlati o‘rtasida nisbatan eng keskin va qattiq qarshilik ko‘rsatishiga olib keldi. Amir Nasrulloxon o‘zining faol tashqi siyosatida qator yutuqlarga erishib, Buxoro Davlatining yaxlit qismi hisoblangan Balx, Marv va boshqa viloyatlar hududlarini amirlik ixtiyoriga yana qaytardi. Shu bilan birga Amir Nasrullo o‘z faoliyatida bir qator jiddiy siyosiy xatolarga ham yo‘l qo‘ydi. Davlat miqyosidagi eng muhim lavozimlarga turk o‘zbek qavmlaridan tashqari ajnabiylarning

qo'shilishi, davlat boshqaruvining eroniy qullar bo'lgan shialarning ta'siri oshishi, Mang'itlar sulolasining forslashish jarayoni, o'zbek tilining mavqeyi pasayishi va boshqalar ana shunday jiddiy xatolardir. Buning ustiga amir Nasrullo tomonidan Nodirabegimning o'ldirilishi uning obrosiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшов.Б. Узбек давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. Т. 2012
2. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Т. 2001
3. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov. O'zbekiston tarixi. Т. 2019
4. Karimov. Sh. Vatan tarixi. Т. 2010
5. Ражабов.К. Насруллохон. Т. 2011
6. Р.Х.Муртазаева. Узбекистон тарихи Т. 2003